

ISSN 2181-922X

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

2019 Vol.4

ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF THE UZBEK
LANGUAGE AND LITERATURE

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosari: Zaynobiddin Abdirashidov

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Baxtiyor Nazarov, Naim Karimov, Nizomiddin Mahmudov, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Nurboy Jabborov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov, G'aybulla Boboyorov, Qosimboy Ma'murov, Nozliya Normurodova, Margarita Galiyeva, Dusmamat Kulmamatov, Venera Qayumova, Abdi Mamatov.

Tahrir hay'ati

Frederik Bressand (Fransiya)	Shohid Taslim (Hindiston)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Dilsara Kamil (Kanada)
Homid Abbas Xon (Saudiya Arabistoni)	Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Murtazo Sayidumarov (O'zbekiston)	Vahit Turk (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Tolib Yildirim (Turkiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Abdulvahab Qora (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Xisao Komatsu (Yaponiya)	Mustafa Kachalin (Turkiya)
Gurer Gulsevin (Turkiya)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Ingyong O (Janubiy Koreya)	Dilnoza Duturayeva (O'zbekiston)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Sulton Normamatov (O'zbekiston)
Ashirbek Mo'minov (Qozog'iston)	Rustam Suleymanov (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Anton Vang (Xitoy)
Darya Jigulskaya (Rossiya)	Ishtvan Zimoniy (Vengriya)
Timur Xo'jao'g'li (AQSH)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

103 Yusuf Xos Hojib ko'chasi, Yakkasaroy tumani, Toshkent, O'zbekiston.

Email: editor_uzlc@gmail.com

Website: www.uzlc.uz

MUNDARIJA

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Исроил Шамсимухамедов

«Вакфийе» Навои как историко – биографическое произведение.....6

Uzoq Jo'raqulov

Badiiy ijodda dekompressiya jarayoni.....30

Ilyos Ismoilov, Abdug'ani Nasriddinov

Nizomiy "Iskandarnoma" sining o'zbek adabiyotshunosligida
o'rganilishi41

Lingvistika

Ibrohim Darvishov

Shevalar – etnoslararo til munosabatlarining tarixiy dalili
(janubi-g'arbiy Namangan shevalari asosida)51

Шахноза Мухтарова

Употребление археологических терминов
греко-латинского происхождения66

Sotsiologiya. Psixologiya

Ahmad Bahriyev

Ta'lim jarayonida milliy musiqiy tasavvurlarni
shakllantirishning psixologik jihatlari80

Tarix. Manbashunoslik

Тамара Нуридинова, Ольга Удовенко

О взаимовлиянии на Великом Шелковом Пути: исторические
примеры отношений между Средней Азией и Китаем101

San'at

Зулфия Мурадова

Иконография музыкальных инструментов
раннесредневекового Согда (по археологическим данным)112

I. Ismoilov

(Toshkent, O'zbekiston)
ismoilov@navoiy-uni.uz

A. Nasriddinov

(Toshkent, O'zbekiston)
nasriddinovabdu@gmail.com

Nizomiy “Iskandarnoma” sining o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishi

Abstrakt

O‘zbek va ozarbayjon xalqlari adabiyoti mushtarak tarixga ega. Qadimdan bu ikki adabiyot o‘zaro ta‘sir ko‘rsatgan holda rivojlanib kelgan. Nizomiy Ganjaviy “Xamsa” sining o‘zbek adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodiga ta‘siri – alohida masala. Ushbu maqolada mazkur masalaning o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilish tarixi, o‘ziga xos xususiyatlari va istiqbollari to‘g‘risida so‘z boradi. O‘zbek adabiyotshunosligida bugunga qadar amalga oshirilgan ishlar tahlil etilib, komparativistik aspektdagi ishlarning zarurati ta‘kidlanadi

Kalit so‘zlar: Nizomiy, Navoiy, Xamsa, adabiy ta‘sir, tarjima, individuallik, komparativistika, qiyosiy adabiyotshunoslik

Mualliflar haqida: *Ilyos Abduqayumovich Ismoilov* – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti;

Abdug‘ani Abdug‘afforovich Nasriddinov – magistrant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Iqtibos uchun: *Ismoilov, I. A., Nasriddinov, A. A.* 2019. “Nizomiy “Iskandarnoma” sining o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishi”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 4: 41—50.

Kirish

O‘zbek adabiyotshunosligida Nizomiy ijodini o‘rganish uzoq tarixga ega. Bu boradagi ishlar, dastlab, tarjima yo‘sinida boshlangan bo‘lib, Qutb XIV asr o‘rtalarida Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonini turkiy tilga o‘girdi. XV asrda Haydar Xorazmiy “Maxzan ul-asror”ga javoban “Gulshan ul-asror” asarini yozdi. Keyingi ishlar adabiyotshunoslikka yaqin, ko‘proq memuar xarakterga ega. Mumtoz adabiyotning o‘ziga xos jihatlaridan biri shuki, aksariyat ijodkorlar

bir paytda adabiyotshunos sifatida ham namoyon bo'ladi. Xususan, Alisher Navoiy "Xamsa" debochalarida Nizomiyga alohida boblar ajratadi, devonlari tarkibidagi ko'plab lirik asarlarda uni tilga oladi. Navoiyning mazkur yodnomalari vasf, madh va hurmat ifodasigina emas, Nizomiy ijodi haqidagi, umuman, badiiy ijod haqidagi adabiy qarashlar ifodasi, Nizomiy ijodiga berilgan badiiy-estetik baho ham edi. Navoiyga qadar biror o'zbek adibi yoki adabiyotshunosi Nizomiy "Xamsa"ga bu qadar keng to'xtalgan emas. Shu bois Nizomiy beshligining o'zbek adabiyotida maxsus o'rganilishi masalasini Navoiydan boshlash to'g'ri bo'ladi.

Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" sida ham Nizomiyga maxsus bob ajratilgan bo'lib, unda shoir shaxsiyati, ijodining hajmi va salmog'i, "Panj ganj"i to'g'risida muxtasar ma'lumotlar beriladi. Masalan, Nizomiy "Xamsa"si xususida shunday yozadi: *"Va dar ro'zgori shayx "Xamsa"-ro jam nakarda budand va har yak doston judo bud, to ba'd az vafoti shayx in kitobro dar yak jild jam kardand va fuzalo "Xamsa" nom nihodand"* [Давлатшоҳ 2015, 136]. XVIII asrga kelib "Xamsa" yozishni maqsad qilgan Nishotiy ham "Husn va Dil" dostonining IX bobida xamsanavislik an'anasiga muvofiq salafлари "Xisrav bila Shayx Nizomiy va Mir Kabir bila hazrati Jomiy"larning zikrini keltiradi [Нишотий 1967, 440]. XIX asrga kelib Muhammadrizo Ogahiy "Haft paykar"ni nasriy yo'lda tarjima qildi. So'ng mutarjim Shoh Hijron "Qissayi Dorobi Zarrinkamar" asarida "Iqbolnoma"ning ixcham bayonini bergan bo'lsa, Nurmuhammad Buxoriy va Mulla Fozil Xomushiyalar Nizomiy "Xamsa"sini sharhlash jarayonida "Iskandarnoma"ga batafsil to'xtab o'tganlar [Ганжавий 2009, 7]. Jadidlar davriga kelib Fitrat Nizomiy ijodining, xususan, "Xusrav va Shirin" dostonining sujeti va manbalariga e'tibor qaratdi [Фитрат 2000, 131-132].

O'ttizinchi yillar so'ngiga kelib Nizomiy tavalludiga 800 yil to'lishi munosabati bilan uning adabiy merosini o'rganish hamda ilmiy-nazariy asosda tadqiq etish ishlari O'zbekistonda ham jadallashdi. 1940-yillar atrofida qardosh respublikalarda bir nechta ilmiy tadqiqotlar yaratildi [Маллаев 2015, 3]. Biroq bu davrda jiddiy tadqiqot ko'zga tashlanmaydi.

1947-yili urush tufayli kechiktirilgan yubiley nishonlandi. Shu yili Maqsud Shayxzoda so'zboshisi bilan "Guldasta" ("Panj ganj"dan parchalar) kitobi, 1948-yili esa V. Zohidovning "Dunyo adabiyotining nuroniy siymosi" risolasi chop etildi [Зоҳидов 1948, 62]. Bu adabiyotshunosligimizda Nizomiy ijodi haqidagi dastlabki maxsus risola edi. Shundan so'ng 80-yillar boshida Nizomiy ijodiga

oid keng qamrovli ishlar ko'rinmaydi. Ammo 1956-yili Moskvada o'zbek nizomiyshunosligiga bevosita aloqador bo'lgan Y. E. Bertelsning "Nizomiy" nomli monografiyasi e'lon qilindi [Бертельс 1956].

1982-yili Sh.Shomuhamedov shoir lirikasidan qilgan bir necha tarjimalarini jamlab "Nizomiy she'riyatidan" nomi ostida chop etdi [1982], mutarjim shu yillarda Nizomiy she'rlari, "Maxzan ul-asror" va "Haft paykar"dan qilgan tarjimalarini "Sharq klassiklari merosidan" turkumida ham nashr qildirdi. F. Sulaymonova 1985-yili "Nizomiy "Xamsa"sig'a ishlangan rasmlar" nomli kitobini nashrga tayyorladi. 1985-yilda N. Mallayevning o'zbek adabiyotshunosligida birinchilardan bo'lib, Nizomiy hayoti va ijodi haqida nisbatan tugal ma'lumot beruvchi, ilmiy tahlil va kuzatishlarga boy "Nizomiy Ganjaviy merosi va uning ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati" nomli tadqiqoti e'lon qilindi [Маллаев 1985]. F. Sulaymonova 1991-yil "Aql va tafakkur kuchi" nomli risolasida yana Nizomiy ijodi haqida maxsus to'xtalib, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiylar ijodi bilan qiyosan tahlil etdi [Сулаймонова 1991, 5-26]. 1994-yilda esa M. G'anixonov "Nizomiy va Qutb "Xusrav va Shirin" dostonlarining qiyosiy tahlili" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi¹.

2002 va 2007-yillarda Nizomiy ijodiga bag'ishlab Toshkentda o'tkazilgan ilmiy anjuman materiallari to'plam hoida nashr etildi [Ганжалик даҳо 2002; Низомий ва ўзбек адабиёти 2007]. Akademik Aziz Qayumov ham "Haft paykar" xususida o'z tadqiqotlarini e'lon qildi [Қаюмов 2009]. Keyingi yillarda Olimjon Bo'riyev Nizomiy "Panjanj"ini, Jonibek Subhon esa "Iqbolnoma"ni o'zbek tiliga tarjima qilgan bo'lsa, 2019-yilda Jamol Kamol Nizomiy "Xamsa"si tarjimasini tamomladi. O'zbek adabiyotshunosligida Nizomiy ijodi haqida bulardan boshqa ishlar ham mavjud, ammo ularning aksariyati so'zboshi, maqola va tezislardan iborat [Имомназаров 1991; 2013; Ҳомидий 1999; Ёрқин 2012].

Ma'lum bo'ladiki, adabiyotshunosligimizda Nizomiy ijodi borasida qilingan ishlar shoir merosining salmog'i va ko'lamiga nisbatan yetarli emas. XI asr va undan keyingi davr turkiy adabiyotning rivoji, qonuniyatlari va o'ziga xosliklarini aniqlashda, xususan, o'zbek adabiyotida butun bir davrni tashkil etuvchi Navoiy

¹ 1994-yil Samarqandda I.Salimovning "Alisher Navoiyning badiiy obraz yaratish mahorati" ("Saddi Iskandariy" misolida) mavzusidagi va 1996-yil Y.Azimovning "Abdurahmon Jomiy "Xiradnomayi Iskandariy" dostonining qiyosiy-tipologik tahlili" mavzusidagi nomzodlik ishlari yuzaga keldi. Har ikki ishda mavzu taqozosiga ko'ra Nizomiy ijodiga murojaat qilingan bo'lsa-da, shoir ijodining maxsus ilmiy tahlili kuzatilmaydi.

merosi tadqiqida Nizomiy ijodi muhim o'rin tutar ekan, uning ijodini yanada chuqur tadqiq etish dolzarb bo'lib turaveradi. Bu boradagi ishlardan biri Nizomiy va Navoiy "Xamsa"larining qiyosiy tahlilidir. Adabiyotshunoslik ilmi bugunga qadar mazkur masalada muayyan natijalarga erishgan. Jumladan, M. Muslihiddinov to'rt xamsanavis – Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiy "Xamsa"sining ilk dostonlarini qiyosiy o'rgandi [Муслихиддинов 2005]. Tahlillar "Hayrat ul-abror", "Maxzan ul-asror", "Matla' ul-anvor" va "Tuhfat ul-ahror" dostonlarida komil inson talqini va tasvirida har bir shoirga xos xususiy va mushtarak tomonlar yoritildi.

S.Erkinov Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni va, umuman, Farhod obrazi mavjud bo'lgan asarlarning tarixi va shu silsilada Farhod qissasining Navoiyga xos talqini masalasini monografik yo'sinda tekshirdi [Эркинов 1971]. Tadqiqotda Sharq adabiyotida Navoiygacha yaratilgan "Xusrav va Shirin", "Farhod-noma" nomlari bilan mashhur bo'lgan asarlarni ko'zdan kechirish, o'rta asr Sharq adabiyotida Farhod qissasining paydo bo'lishi, qissaning genezisi hamda g'oyat murakkab rivojlanish bosqichlarini belgilash kabi masalalar yoritildi.

T. Ahmedov Navoiy "Xamsa"sining uchinchi dostoni "Layli va Majnun"ni qiyosiy o'rgandi [Ахмедов 1970]. Tadqiqotda "Layli va Majnun" haqida Navoiyga qadar turkiy tilda yaratilgan dostonlar, arab manbalaridagi rivoyatlar va fors-tojik tilida ijod qilingan asarlar, xususan, salaflarining shu mavzudagi dostonlari tahlil etilgan. "Layli va Majnun" to'g'risida bundan keyingi jiddiy ish sifatida S.Narzullayevaning "Sharq xalqlari adabiyoti tarixida "Layli va Majnun" mavzusi" nomli tadqiqotini eslash zarur [Нарзуллаева 1988].

Shundan keyin S. Hasanovning Navoiy "Sab'ai sayyor" dostoni qiyosiy jihatdan atroflicha o'rganilgan tadqiqoti yuzaga keldi [Хасанов 1991]. Unda Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, Navoiy, qisman Ashraf bahromnomalarining syujeti, kompozitsiyasi, Bahrom obrazining evolyutsiyasi, dostonlardagi hikoyatlar genezisi, ijodkorning badiiy mahorati masalalari tahlil qilingan¹.

Afsuski, Alisher Navoiy "Xamsa"sining so'nggi dostoni "Saddi Iskandariy" haqida bunday deb bo'lmaydi. Hozirga qadar Navoiyning ushbu dostoni Nizomiy "Iskandarnoma"si bilan qiyoslab o'rganilmagan. Qayd etish kerakki, 1996-yil Y.Azimovning

¹ Mazkur tadqiqot bilan deyarli bir vaqtda B.Murtazoyevning "Alisher Navoiy "Sab'ai sayyor" va Xusrav Dehlaviy "Hasht behisht" dostonlarining qiyosiy tahlili" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi ham himoya qilingan. Tadqiqotda Nizomiy ijodiga ham murojaat etilgan.

"Abdurahmon Jomiy "Xiradnomai Iskandariy" dostonining qiyosiy-tipologik tahlili" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida Jomiy va Navoiyning "Iskandarnoma"lari muqoyasa qilingan, o'rni bilan Nizomiy "Iskandarnoma"si ham tahlil etilgan. O'zbek adabiyotshunosligida mazkur dissertatsiyadan boshqa "Saddi Iskandariy" asosida amalga oshirilgan qiyosiy tahlilni bilmaymiz. Vaholanki, Navoiy dostonini nafaqat Jomiy "Xiradnoma"si, balki Nizomiy, Xusrav, Sheroziy, Ahmadiy va boshqa ko'plab shu mavzudagi Sharq va G'arbda yaratilgan asarlar bilan solishtirib o'rganish juda boy va qimmatli xulosalarga asos bo'ladi.

Masalaning yana bir jihati, o'zbek adabiyotshunosligida Nizomiy "Iskandarnoma"si maxsus o'rganilgan emas. N. Mallayev o'z risolasida dostonni ancha batafsil tahlil etgan. V. Zohidovning risolasida esa, asosan, Nizomiyning "panteistik monizmi" yoki shoir ijodining ijtimoiy mohiyati haqida so'z yuritilgan, "Iskandarnoma" maxsus tahlil etilgan emas. Nizomiy "Iskandarnoma"si haqida adabiyotshunosligimizdagi boshqa qaydlar ham shu xarakterda bo'lib, aksariyat hollarda u yoki bu masala munosabati bilan tilga olinuvchi umumiy fikrlardir. O'zbek va ozar adabiy aloqalari tekshirilgan kam sonli ishlarda [Шарипов 1968], o'zbek va fors-tojik adabiy aloqalarini maxsus tekshirgan E.Shodiyevning ishlarida Nizomiy va Navoiy ijodi borasida fikrlar ko'zga tashlanadi, "Iskandarnoma"lar xususida maxsus kuzatishlar uchramaydi [Шодиев 167; 1990; 1969; 1989]. O'z davrida qardosh va chet tillarda yoritilgan ishlar ilmiy jamoatchilikni qanoatlantirgan bo'lishi mumkin. Ammo bugunga kelib bu masalalar ustida qaytadan bosh qotirish hamda mavhum yoki ataylab chetlab o'tilgan jihatlarga diqqat qilib, kompleks tarzda ob'yektiv muqoyasa qilish davri yetdi.

V. Zohidov risolasida "Iskandar Nizomiyning komil, ideal shohi, u dunyoni o'z adolati bilan fath egan" [Зоҳидов 1948, 28] tarzida ko'proq Nizomiy ijodining umumiy mazmuni haqida fikr yuritadi. N. Mallayev esa Nizomiy "Iskandarnoma"ni yozishda o'z oldiga qanday vazifalarni qo'ygani haqida shunday yozadi: "Nizomiy bu dostonida ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlarini yakunlash hamda adolatli va ma'rifatparvar podshoning mukammal obrazini yaratish vazifasini qo'yadi" [Маллаев 2015, 61]. Olim ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlarni yakunlash deganda avvalgi to'rt dostonida ilgari surilgan qarashlarni nazarda tutadi, ya'ni Nizomiy avvalgi dostonlarida bayon qilgan fikr-mulohazalarini so'nggi dostonida umumlashtiradi, qarashlariga xulosaviy mavqe va epik ko'lam beradi. Shu sabab ham asar hajmi 10 000 baytdan oshgan edi.

N.Mallayev Iskandar obrazining yaratilish tarixi haqida so'zlar ekan, Iskandarning vafotidan ko'p o'tmay hamkorlari Klitarx va Onesikrit biografiyasini yozib chiqqani va bu asosda Plutarxning (46 –126) biografik asari yaratilganini to'g'ri qayd etadi. Keyinchalik Iskandar haqidagi gaplar tarixiy kitoblardan tashqari turli afsona va rivoyatlarning ham mavzusi bo'la boshlaydi. Aslida, Iskandarning askarlari u haqda rivoyatlar to'qib tarqatishgan va mana shu jarayonda tarixiy haqiqatga uydirmalar qo'shilib ketgan, deydi olim. So'ngra Iskandarning vrachi Kallisfenga nisbat beriluvchi roman yaratilgani va u ko'pgina sharq tillariga, Yuliy Valeriyning lotincha tarjimai orqali Yevropaga tarqalgani aytiladi. Sharqda bir muddat Iskandar haqida salbiy hukm saqlangan bo'lsa-da, bu uzoqqa cho'zilmaydi. Chunki tarixda Ahamoniylar yengilmas degan nom bilan shuhrat qozongan edi, Aleksandr Droni mag'lub etgach bu fikr puchga chiqadi. Buni sezdirmaslik uchun fors tarixchilari Iskandarni ahamoniylar sulolasidan chiqqan hukmdor sifatida talqin qila boshlaydi. Masalan, "Xudoynamak" da shunday talqinlar mavjud bo'lgan [Маллаев 1976, 492].

N. Mallayevning fikricha, bu qarashlar rivojlanib Firdavsiyning "Shohnoma" sig'a o'tadi. Shu tariqa Iskandar Sharqda ijobiy obraz sifatida qayta nom topadi, "...bu obraz ayrim elementlari bilan tarixiy Iskandarga – Aleksandr Makedonskiyga o'xshasa ham, lekin u tarixiy Iskandarning aynan o'zi emas. Shu bilan birga, u og'zaki va yozma adabiyotda yaratilgan Iskandar obrazining takrori ham emas" [Маллаев 2015, 66]. Albatta, Nizomiy Iskandari o'ziga qadar yaratilgan qahramonlardan o'sib chiqqan, ammo yangi ijodkorning maqsad va istaklarini singdirgan original obraz edi.

F.Sulaymonova esa o'z risolasida Nizomiy "Iskandarnoma"-sining yaratilishi va undan ko'zlangan maqsad haqida shunday yozadi: "Iskandarnoma"ning real Aleksandr tarixiga hech qanday aloqasi yo'q. Shoirning asosiy maqsadi ideal hokim, faylasuf-shoh, nabi-shoh, butun insoniyat uchun baxt-saodat izlagan donishmand obrazini yaratish edi [Сулаймонова 1991, 25]. Nazarimizda, olima shoir maqsadining ko'pgina jihatlarini to'g'ri ta'kidlagani holda, nima uchundir Iskandar obrazining Aleksandr Makedonskiy shaxsiyati va tarixi bilan aloqador ekanligini inkor etadi. Bu borada Nizomiy muqaddimada to'xtalib, Iskandarning nasabidan tortib butun jahongirliги afsona-yu rivoyatlarga qorishib ketgani va diqqat bilan yahudiy, nasroniy va pahlaviy tillaridagi manbalarni o'rgangan va ularning qaysi birida haqiqatni ko'rgan bo'lsa, ana o'sha ma'lumotlarni asariga kiritgani va nazm yo'li bilan bezak berganini

aytadi. Ya'ni, Nizomiyning o'zi bosh qahramonining tarixi va haqiqati bilan jiddiy qiziqqan, shunday ekan, Iskandar obrazining Aleksandr Makedonskiyga bo'lgan aloqasini rad etib bo'lmaydi, aksincha o'zaro qiyosiy o'rganish masalaning ayrim jihatlarini tushunishda yordam beradi. Bizningcha, adabiyotshunos bunda Iskandarning obraz sifatidagi maqomini nazarda tutgan. Ta'kidlash kerakki, xorijlik sharqshunoslar tomonidan Aleksandr Makedonskiy va sharq adabiyoti masalalari keng o'rganilgan [Бертельс 1965; Костюхин 1972; Гафуров 1980; Алиев 1985].

O'zbekistonda Nizomiyning "Haft paykar" va "Xusrav va Shirin" dostonlari ko'proq o'rganilgan. Keyingi yillarda Nizomiy "Iskandarnoma"si bilan bog'liq ayrim tadqiqotlar yuzaga keldi. Masalan, 2019-yil I. Ismoilov Navoiyning "Saddi Iskandariy" va Nizomiyning "Iskandarnoma" dostonlarini komparativistik aspektda o'rganib, dissertatsiya himoya qildi. Xulosa shuki, Nizomiy "Iskandarnoma"sini "Saddi Iskandariy" bilan qiyosiy aspektda yanada chuqurroq o'rganish Navoiy ijodi va bu orqali o'zbek adabiyoti tarixini yaxshiroq tasavvur qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar

- Алиев, Г. Ю. 1985. *Темы и сюжеты Низами в литературах народов востока*. Москва: Наука.
- Аҳмедов, Т. 1970. *Алишер Навоийнинг "Лайли ва Мажнун" дostonи*. Тошкент: Фан.
- Бертельс, Е. Э. 1956. *Низами*. Москва: Наука.
- Бертельс, Е. Э. 1965. *Роман об Александре и его главные версии на востоке. Избранные труды. Том 4*. Москва: Наука.
- Болтабоев, Ҳ. 2007. *Низомий Ганжавий ижоди Фитрат талқинида. Илмий анжуман материаллари*. Тошкент: Тошкент ислом университети.
- Давлатшоҳи, Самарқандӣ. 2015. *Тазкирату-ш-шуаро*. Таҳияи Мухлиса Нуруллоева. – Ҳучанд: Ношир.
- Эркинов, С. 1971. *Навоий "Фарҳод ва Ширин"и ва унинг қиёсий таҳлили*. Тошкент: Фан.
- Фитрат, А. 2000. *Фарҳод ва Ширин дostonи тўғрисида. Танланган асарлар. II жилд*. Тошкент: Маънавият.
- Гафуров, Б. Г., Цибукидис, Д. И. 1980. *Александр Македонский и Восток*. Москва: Наука.
- Ганжавий, Низомий. 2009. *Иқболнома. Ж. Субҳон таржимаси*. Тошкент: ART FLEX.
- Ганжалик даҳо. 2002. *Низомий номидаги ТДПУда ўтказилган илмий анжуман материаллари*. Тошкент.
- Ҳасанов, Б. 1991. *Навоийнинг етти тухфаси*. Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси.

- Ҳомидий, Ҳ. 1999. *Кўҳна Шарқ дарғалари*. Тошкент: Шарқ.
- Имомназаров, М. 2013. *Мумтоз форс шеърляти*. Тошкент.
- Имомназаров, М. 1991. “Низомий Ганжавий”. *Қишлоқ ҳақиқати*, 6: 3.
- Кастюхин, Е. А. 1972. *Александр Македонский в литературной и фольклорной традиции*. Москва: Наука.
- Маллаев, Н. 2015. *Низомий Ганжавий*. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти.
- Маллаев, Н. 1976. *Ўзбек адабиёти тарихи*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Муҳиддинов, М. 2005. *Комил инсон – адабиёт идеали*. Тошкент: Маънавият.
- Нарзуллаева, С. 1988. Тема “*Лейли и Меджнун*” в истории литератур народов Советского Востока. Тошкент: Фан.
- Низомий шеърлятидан. Ш. Шомуҳамедов таржимаси*. 1982. Тошкент: Ўзбекистон КП МК нашриёти.
- Низомий ва ўзбек адабиёти*. 2007. Низомий номидаги ТДПУда ўтказилган илмий анжуман материаллари: ўзбекча ва форсча матнда. Тошкент: Тошкент ислом университети.
- Нишотий. *Хусн ва Дил*. 1967. Нашрга тайёрловчилар Ҳ. Расул ва И. Ражабов. Тошкент: Фафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти.
- Қаюмов, А. 2009. *Асарлар. VIII жилд*. Тошкент: MUMTOZ SO'Z.
- Сулаймонова, Ф. 1991. *Ақл ва тафаккур кучи*. Тошкент: Фан.
- Ёрқин, Муҳаммад Ҳалим. 2012. “Низомий Ганжавийнинг туркий девони”. *Ўзбекистон адабиёти ва санъати*, 22 июн. 4.
- Зоҳидов, В. 1948. *Дунё адабиётининг нуруний сиймоси*. Тошкент: Ўздавнашр.
- Шарипов, М. 1968. *Навоий ва адабий алоқалар*. Тошкент: Фан.
- Шодиев, Э. 1967. *Алишер Навоий ва унинг салафлари*. Ленинобод.
- Шодиев, Э. 1990. *Алишер Навоийнинг форс-тожик тилидаги асарлари*. Тошкент: Фан.
- Шодиев, Э. 1969. *Навоий ва ёш тожик адиблари*. Тошкент: Ленинобод.
- Шодиев, Э. 1989. *Алишер Навоий ва форс-тожик адиблари*. Тошкент: Ўқитувчи.

I. Ismailov

(Tashkent, Uzbekiston)
ismoilov@navoiy-uni.uz

A. Nasriddinov

(Tashkent, Uzbekiston)
nasriddinovabdu@gmail.com

The Study of the Work "Iskandarnoma" by Nizami in Uzbek Literature

Abstract

The literature of both Uzbek and Azerbaijani have a common history. From time immemorial, both these literatures have evolved in influencing to each other. In this regard, the influence of „Khamsa” by Nizami Ganjavi on Uzbek literature, especially Alisher Navai, is a particular issue. The article refers to the history, features, and perspectives of this issue in Uzbek literary studies. Having researched the investigated works so far in Uzbek literature, it is emphasized the importance of a comparative works.

Key words: Nizami, Navoi, Khamsa, Literary influence, Translation, Individuality, Comparative studies, Comparative Literature

About the authors: *Ilyos Ismoilov A* – Doctor of Philosophy in Philology, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi;

Abdugani Nasriddinov A – undergraduate, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

For citation: *Ismoilov, Ilyos, Nasriddinov, Abdugani.* 2019. "The Study of the Work "Iskandarnoma" by Nizami in Uzbek Literature". *Uzbekistan: Language and Culture* 4: 41—50.

References

- Aliev, G. J. 1985. *Temy i sjuzhety Nizami v literaturah norodov vostoka.* Moskva: Nauka.
- Ahmedov, T. 1970. *Alisher Navoiyning "Lajli va Mazhnun" dostoni.* Toshkent: Fan.
- Bertel's, E. J. 1956. *Nizami.* Moskva: Nauka.
- Bertel's, E. J. 1965. *Roman ob Aleksandre i ego glavnye versii na vostoke. Izbranniye trudy.* Tom 4. Moskva: Nauka.
- Boltaboev, H. 2007. *Nizomij Ganzhavij izhodi Fitrat talqinida. Ilmij anzhuman materiallari.* Toshkent: Toshkent islom universiteti.
- Davlatshohi, Samarqandj. 2015. *Tazkiratu-sh-shuaro.* Tahijai Muhlis Nurulloeva. – Huchand: Noshir.

- Jerkinov, S. 1971. Navoiy "Farhod va Shirin"i va uning qijosij tahlili. Toshkent: Fan.
- Fitrat, A. 2000. *Farhod va Shirin dostoni tugrisida*. Tanlangan asarlar. II zild. Toshkent: Manavijat.
- Gafurov, B. G., Cibukidis, D. I. 1980. *Aleksandr Makedonskij i Vostok*. Moskva: Nauka.
- Ganzhavij, Nizomij. 2009. *Iqbolnoma*. Z. Subhon tarzhimasi. Toshkent: ART FLEX.
- Ganzhalik daho*. 2002. Nizomij nomidagi TDPUDA utkazilgan ilmiy anzhuman materiallari. Toshkent.
- Hasanov, B. 1991. *Navoiyning etti tuhfas*i. Toshkent: Gafur Gulom nomidagi nashrijot-matbaa birlashmasi.
- Homidij, H. 1999. *Kuhna Sharq dargalari*. Toshkent: Sharq.
- Imomnazarov, M. 2013. *Mumtoz fors sherijati*. Toshkent.
- Imomnazarov, M. 1991. "Nizomij Ganzhavij". *Qishloq haqiqati*, 6: 3.
- Kastjuhina, E. A. 1972. *Aleksandr Makedonskij v leteraturnoj i fol'klornoj tradicii*. Moskva: Nauka.
- Mallaev, N. 2015. *Nizomij Ganzhavij*. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Millij kutubhonasi nashrijoti.
- Mallaev, N. 1976. *Uzbek adabijoti tarihi*. Toshkent: Uqituvchi.
- Muhiddinov, M. 2005. *Komil inson – adabijot ideali*. Toshkent: Manavijat.
- Narzullaeva, S. 1988. *Tema "Lejli i Medzhnun" v istorii leteratur narodov Sovetskogo Vostoka*. Toshkent: Fan.
- Nizomij sherijatidan*. Sh. Shomuhamedov tarzhimasi. 1982. Toshkent: Uzbekiston KP MK nashrijoti.
- Nizomij va uzbek adabijoti*. 2007. Nizomij nomidagi TDPUDA utkazilgan ilmiy sanzhuman materiallari: uzbekcha va forsha matnda. Toshkent: Toshkent islom universiteti.
- Nishotij. *Husn va Dil*. 1967. Nashrga tajjorlovchilar H. Rasul va I. Razhabov. Toshkent: Gafur Gulom nomidagi badiij adabijot nashrijoti.
- Qajumov, A. 2009. *Asarlar*. VIII zild. Toshkent: MUMTOZ SO'Z.
- Sulajmonova, F. 1991. *Aql va tafakkur kuchi*. Toshkent: Fan.
- Jorqin, Muhammad Halim. 2012. "Nizomij Ganzhavijning turkij devoni". *Uzbekiston adabijoti va sanati*, 22 iyun. 4.
- Zohidov, V. 1948. *Dunjo adabijotining nuronij sijmosi*. Toshkent: Uzdavnashr.
- Sharipov, M. 1968. *Navoiy va adabij aloqalar*. Toshkent: Fan.
- Shodiev, J. 1967. *Alisher Navoiy va uning salaflari*. Leninobod.
- Shodiev, J. 1990. *Alisher Navoiyning fors-tozhik tilidagi asarlari*. Toshkent: Fan.
- Shodiev, J. 1969. *Navoiy va josh tozhik adiblari*. Toshkent: Leninobod.
- Shodiev, J. 1989. *Alisher Navoiy va fors-tozhik adiblari*. Toshkent: Uqituvchi.